

OYBEK DOSTONLARIDA AYOLLAR OBRAZI**Dehqonova Maxsuma,***FarDU katta o'qituvchisi,**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Qosimov Iqboljon,***Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti*<https://doi.org/10.24412/2181-2993-2023-1-21-26>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Oybek dostonlarida ayollar obrazi va ularning ichki kechinmalari, front ortidagi fidokorona mehnatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Qizlar, eskilik sarqiti, Dilbar, Baxtigul, Sog'indiq, qadim qizi, Gulshan, Oyjamol, Oltinoy, Nazmixon*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об образе женщин в Ойбекских былинах и их внутренних переживаниях, самоотверженном труде за фронтом.

Ключевые слова: *Девушки, очарование старины, Дилбар, Бахтигуль, Согиндик, старушка, Гульшан, Ойджамол, Алтыной, Назмихан.*

ABSTRACT

This article talks about the image of women in Oybek epics and their inner experiences, selfless work behind the front.

Key words: *girls, the charm of old times, Dilbar, Bakhtigul, Sogindiq, old girl, Gulshan, Oyjamol, Altinoy, Nazmikhon*

KIRISH (Introduction)

Oybek dostonlarining bosh qahramonlari asosan mehnatkash ayollardir. Buyuk ijodkor dastlab xotin-qizlarning yurt farovonligi, mamlakat ravnaqi yo'lida ko'rsatgan jasoratlarini tasvirlaydi. Oybek o'zbek xotin-qizlarining tarixiy yo'lini Dilbar, Dildor, Gulnor, Unsin, Zebi, La'li, Gulnoz, Tansiq kabi qator obrazlar vositsida aks ettirish jarayonida ular yashagan tarixiy davr va muhitning aniq tasvirini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Bunga "Qizlar" dostoni misol bo'la oladi. Asarda og'ir urush yillarida erkaklar o'rnini egallab, fidokrona mehnat qilayotgan qizlarning front ortidagi jasoratlarini ulug'lash g'oyasi yetakchilik qiladi. O.Sharafiddinov ta'kidlaganidek "... "Qizlar"ni o'zbek poemachiligining eng yaxshi namunalaridan biri deb atash mumkin.

Chunki u o'zbek ayolining urush yillaridagi mislsiz qahramonligiga bag'ishlangan birinchi poemagina emas, balki bu qahramonning chuqur lirizm,

samimiy muhabbat bilan, jonajon o'lkaga oshiqlik tuyg'usi bilan tavirlab bergan ajoyib poetik asar hamdir¹". "Qizlar" dostoni urush qahrini tortayotgan o'zbek qishlog'i tasviri bilan boshlanadi. Urush davrining og'ir manzaralari odamlarning g'amgin qiyofalari bilan uyg'un holatda quyidagicha aksini topadi: "Goh dillarni g'am qaqshatadi. Har so'zda uh, har so'zda iymo. Ko'cha, dala uylar bo'sh kabi, hayot to'y-u bazmdan judo". So'ngra qora uyhadagi "bozillagan pastak tancha"da o'tirgan, mehnatdan sochlari paxmoq, yuz-qo'llari chatnoq, dongdor besh qizaloq tasviri dostonida namoyon bo'ladi. Ular qahraton qish bo'lishiga qaramay kanal qazishda bo'lishgan va kechagina qishloqqa qaytganlar. Urushdagi sevganlari hamda yaqinlariga sovg'a-dastro'mol tikayotgan "o'z yoshi, zavq qilg'i bor" bo'lgan qizlarning kechinmalari va tashqi qiyofalariga xos izchil chizgilarda aks etishi betakror portretlarini ko'z oldimizda gavdalanitiradi. Shu orqali biz doston qahramonlari bilan yaqindan tanishamiz. Ularning qiyofasi, sajiyasi va tarjimai holidan xabardor bo'lamiz. Qizlar yetugi, ingichka qosh, bo'tako'z, bo'ydor Nazmixon, ta'birchi, "qadim qizi" Oltinoy, "qo'shiqchi, dutor chalishning ustasi, sho'x hazilkash va chevar Dilbaroy" "polvon qiz" Oyjamol, o'n to'rt yoshli, qizlarning eng kichik sardori, samimiy, sho'x va quv Gulshan tashqi va ichki qiyofalariga xos chizgilarning izchil ifodasi jarayonida shoir qahramonlarning betakror va mukammal siymolarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

MUHOKAMA (Discussion)

Oybek dostonlarini ilk bor professor H.Yoqubov tadqiq etgan. Tanqidchi H.Yoqubov talqinicha, Oybek "Dilbar-davr qizi" dostonida yangi davr kishisining porloq qiyofasini aks ettirgan. 20-yillar o'rtalarida mamlakatimizda ayollarning erk uchun olib borgan kurashi tasviri bilan birga, xalqning qarashlari o'zgargan bir davrda xarakteri shakllangan qiz dostonning bosh qahramoni qilib olingan.

H.Yoqubovning qayd etishicha, doston janrida birinchi ijobiy ayol obrazi Dilbar bo'lib, u orqali yangi davrda ayol xarakteridagi o'zgarishlar jarayoni keng ochib berilgan. Oybekning doston yaratish tajribasi ortib borib, mehnatkash xalqning og'ir hayotini "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq" dostonlarida aks ettirgan. O'zbek qizlarining jasorati, front ortidagi fidokorona mehnatlari "Qizlar" dostonida haqqoniy, hayotiy aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. M.Qo'shjonov ham Oybek dostonlariga ko'p murojaat etgan munaqqidlardan sanaladi. Tanqidchi uning "Dilbar-davr qizi" poemasi tahlil qilish jarayonida o'zbek xotin-qizlarining ilg'or va tipik vakili xarakterini juda mukammal yarata olganligini aytadi. Dilbar xarakteri orqali hayotga nafaol munosabatda bo'lishni, taqdirga tan berish eskilik sarqiti ekanligini

¹ Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. –T.: Adabiyot va san'at, 1979. 152-bet

yoʻzuvchi qahramoni orqali taʼkidlaganini koʻrsatadi. Oybek dostonlarida bosh qahramonlarni yorqin portretlar bilan ifodalashi uning asosiy yutuʻgʻidir. Dilbar maktab koʻrgan, oʻsha davr ilgʻor ayollarining vakili. Oybek Dilbarni yangi davr kishisi qilib tarbiyalaydi. Qahramon oʻzi kabi ayollarning haq-huquqlari uchun kurashadi. Oybek ushbu dostonning yaratilish tarixi haqida toʻxtalar ekan, yozadi: “Poema, shubhasiz, oʻz vaqtida yozilgan edi. Qizigʻi shu boʻldiki, poema bosilib chiqqanidan soʻng juda kam uchraydigan Dilbar ismi keng tarqalib ketdi²”

Liro-epik tasvirning oʻziga xos usulini realistik chizgilar bilan romantik tuygʻular uygʻunligidagi “Baxtigul va Sogʻindiq” dostonida koʻrishimiz mumkin. Dastlab “Buvimning aytimishlaridan” deb nomlangan asarning mustaqil varianti ellik besh yoshli qozoq boyi Otaboyning “Qarqara” bozoridan oʻn toʻrt-oʻn besh yoshlardagi Baxti Gulning bobosidan sotib olib, oʻz nikohiga kiritishi tasviri bilan boshlanadi. Erkinlikdan ayrilib, jirkanch ishga yaʼni oʻtovga bandi boʻlgan Baxti Gul Otaboy hirsini qondiruvchi buyumga aylanadi. U boydan juda koʻp zulm va haqoratlar koʻra boshlaydi. Ayniqsa, Baxti Gulga Otaboyning xotini zulmkor Ziynatning zulmi uning homiladorligini eshitgandan keyin yana ham kuchayadi.

Voqealar shu qadar murakkablashib boradiki, zulmkor Ziynat Baxti Gulning farzandini zaharlab oʻldiradi. Baxti Gulning sevgilisi Sogʻindiq bir necha yildan keyin uni axtarib keladi. Otaboyga xizmatkor boʻlib yollangan Sogʻindiq atrofiga zulm koʻrgan barcha odamlarni yigʻadi. Otaboy va Ziynatni oʻldirib, oʻtovlariga oʻt qoʻyishgach sevrishganlar qarollar hamrohligida choʻlga oʻtlanadilar. Mustaqil variantdagi ushbu sujet liniyasidan koʻngli toʻlmagan Oybek doston voqealarini oʻzgartiradi. Realistik voqealar asosidagi ushbu voqelik doston janri talablariga mos kelmaganligi bois baʼzi qisartirishlar hamda yangi tafsillar bilan toʻldirishlarga uchraydi.

XULOSA (Conclusion)

Umuman olganda Oybek dostonlarida ayollar obrazi salmoqli oʻrin egallaydi. Oybek aksariyat dostonlariga bosh qahramon qilib olgan obrazlar aynan ayollardir. Ayollarning obrazini shunchaki, keltiribgina qolmay oʻzbek ayolining urush yillaridagi matonatini, front ortidagi mashqatli mehnatini va yana boshqa koʻplab fidokorona ximatlarini oʻz dostonlarida aks ettirgan.

Mashaqqatli ijodiy izlanishlar mahsuli boʻlgan shoir liro-epik asarlari betakror uslubi xususiyatlari, tasvirlar rang-barangligi, tili xalqchilligi bilan oʻzbek dostonchiligi xazinasida munosib oʻrin tutadi. Qahramonlarning qahramonlarning xilma-xilligi, liro-epik tasvir usullarining rang-barangligi, kartinalarning hayotiyliigi,

² Oybek. Mukammal asarlar toʻplami. –T. 14-bet

tafsil va tafsilotlarga boyligi Oybek poemalarining o'ziga xos fazilatlaridandir. Badiiy dostonchilikda Oybek ijodiga baho berish ijtimoiy-siyosiy voqelikning dolzarb masalalari talqiniga ko'ra baholashdan badiiyat, mahorat, uslub masalalari, matnosti ma'nolarini o'rganish uning turli variantlarini taqqoslash tomon yuz burdi. Ulug' shoirning dostonchiligimiz taraqqiyotidagi o'rni xalq og'zaki ijodi, Sharq va G'arb adabiyoti an'alarini davom ettirish borasidagi mahoratini yoritish orqali ko'rsatib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
3. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11).
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
5. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 47-51.
6. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. *Theoretical & Applied Science*, (1), 235-240.
7. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
8. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
9. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
10. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
11. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.

12. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 33-39.
13. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
14. Akhmadjonova, O. A. (2021). Symbolic And Figurative Images Used In The Novel "Chinar". *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 389-392.
15. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
16. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
17. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
18. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
19. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИИЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
20. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel "Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
21. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.
22. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
23. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL "MASHRAB". In Конференции.
24. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
25. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
26. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
27. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN

GRAY” AND “THE MAN AT THE MIRROR”. *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.

28. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.

29. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work / / Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India, June, 2021, –P. 8355-8357.

30. Rustamova I.I. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR//Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi//AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. –America, December, 2021, –P. 230-234.